

Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yanvar-mart
2019 yil


E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YalMdagi ulushi 68,2 %ni tashkil etdi.
- 1,6 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 8,7 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-martida 1,6 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda (42,5 %), sanoatda (21,3 %), qurilishda (11,7 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (7,8 %), yashash va ovqatlanishda (7,7 %), tashish va saqlashda (2,4 %) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2019 yilning yanvar- martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	11163	13098	1935
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	959	1617	658
YalM	%	69,6	68,2	-1,4
Sanoat	%	36,3	45,5	9,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	98,3	98,6	0,3
Investitsiya	%	42,0	62,8	20,8
Qurilish	%	87,2	82,5	4,7
Savdo	%	91,3	90,2	-1,1
Xizmatlar	%	74,5	71,3	-3,2
Yuk tashish	%	66,2	62,6	-3,6
Yuk aylanmasi	%	85,6	82,9	-2,7
Yo'lovchi tashish	%	95,6	95,7	0,1
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,6	96,6	-
Eksport	%	70,0	91,2	21,2
Import	%	85,0	81,0	-4,0


Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

(birlikda)


	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Surxondaryo viloyati bo'yicha	959	1617
Termiz shahri	139	283
tumanlar:		
Angor	72	88
Boysun	43	76
Denov	146	252
Jarqo'rg'on	64	91
Qumqo'rg'on	63	110
Qiziriq	63	84
Muzrabot	49	66
Oltinsoy	25	56
Sariosiyo	43	53
Termiz	47	129
Uzun	35	92
Sherobod	56	100
Sho'rchi	114	137

2019 - yilning yanvar-martida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Termiz shahrida - 283 ta, Denov tumanida - 252 ta, Sho'rchi tumanida - 137 ta, Termiz tumanida - 129 ta va Qumqo'rg'on tumanida - 110 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Sariosiyo tumani 53 ta, Oltinsoy tumani – 56 ta, Muzrabot tumani 66 tani tashkil etgan.

2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi



2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Termiz sh.da - 17,5 %, Denov tumanida - 15,6 %, Sho'rchi tumanida - 8,5 %, Termiz tumanida - 8,0 %, Qumqo'rg'on tumanida 6,8 % va eng past ko'rsatkichni Sariosiyo tumani - 3,3 % ni tashkil etdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-mart 2018 y.	yanvar-mart 2019 y.
Jami	959	1617
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	153	126
Sanoat	138	345
Qurilish	111	189
Savdo	245	687
Tashish va saqlash	36	38
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	75	124
Axborot va aloqa	7	15
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	32	18
Boshqa turdagi xizmatlar	162	75

2019 yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 687 ta, shuningdek :


sanoatda - 345 ta;

qurilishda - 189 ta;

xizmatda - 270 ta

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 126 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Termiz shahrida 21,1 birlikda, Termiz tumanida 12,5 birlikda, Boysun tumanida 10,7 birlikda, Sherobod tumanida 9,7 birlikda, Qiziriq tumanida 9,2 birlikda, Angor tumanida 8,5 birlikda, Muzrabot tumanida 8,3 birlikda, Oltinsoy, Denov, Sariosiyo, Jarqo'rg'on, Uzun, Sho'rchi tumanlarida o'rtacha ko'rsatkich 8,0 - 6,9 birlik oralig'ida aniqlandi. Qumqo'rg'on tumanida 6,2 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)




Agar, 2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 8,8 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 8,7 birlikka tushdi va 2018 yilga nisbatan 0,1 birlikka kamaydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-martida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 45,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 98,6 %, qurilishda - 82,5 %, investitsiyada - 62,8 %, savdoda - 90,2 %, eksportda - 91,2 %, importda - 81,0 % va xizmatlar sohasida - 71,3 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-mart holatiga, %

2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 68,2 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-martida 69,6 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2019 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Surxondaryo viloyati bo'yicha	45,5	82,5	71,3	62,8
Termiz shahri	39,2	96,6	40,1	18,6
tumanlar:				
Angor	45,6	100,0	88,4	84,0
Boysun	99,9	100,0	98,3	48,5
Denov	46,5	100,0	95,3	87,1
Jarqo'rg'on	27,0	98,6	92,0	67,3
Qumqo'rg'on	45,4	52,2	98,2	77,2
Qiziriq	71,0	87,7	98,3	89,9
Muzrabot	46,7	100,0	97,3	92,4
Oltinsoy	100,0	100,0	99,2	77,2
Sariosiyo	53,5	37,0	93,5	40,7
Termiz	99,3	97,1	89,1	67,0
Uzun	94,4	100,0	98,3	77,5
Sherobod	60,4	83,2	97,6	93,1
Sho'rchi	24,4	100,0	98,1	80,8

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Oltinsoy (100,0 %), Boysun (99,9 %) va Termiz (99,3 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Angor (100,0 %), Boysun (100,0 %), Denov (100,0 %), Muzrabot (100,0 %), Oltinsoy (100,0 %) va Uzun (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Oltinsoy (99,2 %), Boysun (98,3 %), Uzun (98,3 %), Qumqo'rg'on (98,2 %) va Sho'rchi (98,1 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Sherobod (93,1 %), Muzrabot (92,4 %) va Qiziriq (89,9 %) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan



2019 yilning yanvar-martida



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 344,4 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 45,5 %) yoki 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 107,8 % ni tashkil qildi;

640,6 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 62,8 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 98,7 %ni tashkil qildi;



415,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 82,5 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 118,3 %ni tashkil qildi;

1056,5 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (respublika jami xizmatlar hajmining 71,3 %), 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 %ni tashkil qildi;



chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,2 % yoki 1862,3 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 103,9 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;

36,7 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 91,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilga nisbatan 17,3 mln. AQSH dollariga yoki 89,0 %ga ko'p;




avtomobil transporti yuk aylanmasining 82,9 %ga (respublika jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,8 %) ko'payishi ta'minlanadi;

yo'lovchi aylanmasining esa 96,6 %ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 2,3 %) ko'payishi ta'minlandi.




Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Sho'rchi, Sariosiyo, Muzrabot, Qiziriq, Qumqo'rgon va Boysun tumanlarida - 100,0 %, eng past ko'rsatkichni Termiz tumani - 49,4 %ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Denov tumani (59,7 mlrd. so'm), Termiz shahar (51,9 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (44,3 mlrd. so'm), Termiz (25,7 mlrd. so'm) va Sariosiyo (25,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Muzrabot (7,4 mlrd. so'm) va Angor tumanlarida (9,9 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (100,0%), Boysun (99,9%), Termiz (99,3%), Uzun (94,4%), Qiziriq (71,0%), Sherobod (60,4%), Sariosiyo (53,5%), Muzrabot (46,7%) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Jarqo'rg'on (27,0%) va Sho'rchi (24,4%) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (424,4 mlrd. so'm), Termiz shahri (309,3 mlrd. so'm), Sho'rchi (177,5 mlrd. so'm), Sherobod (116,3 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (106,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (113,0 mlrd. so'm), Denov (38,6 mlrd so'm), Jarqo'rg'on (36,3 mlrd. so'm) hamda Sariosiyo (35,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o`shish sur`ati



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Termiz shahri (260,4 mlrd. so'm), Denov (221,3 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (62,8 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (60,1 mlrd. so'm) va Sariosiyo (59,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil I - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 120 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 27 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 22,5 %), qurilish - 15 (12,5 %), savdo - 48 (40,0 %), xizmatlar sohasi - 20 (16,7 %), qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi - 10 (8,3 %) ni tashkil etdi.

2019 yil I - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Termiz shahrida - 20,8 % (25 ta), Denov tumanida - 16,7 % (20 ta), Qumqo'rg'on tumanida - 10,0 % (12 ta), Sho'rchi tumanida - 8,3 % (10 ta), Angor tumanida - 6,7 % (8 ta), Termiz tumanida - 6,7 % (8 ta), Boysun tumanida - 5,0 % (6 ta), Muzrabot tumanida - 5,0 % (6 ta) ni tashkil qildi.

Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 40,7 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 55,6 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 27,1 % va 66,7 %, xizmatlar sohasida – 20,0 % va 65,0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 20,0 % va 60,0 %, sanoatda – 40,7 % va 55,6 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 3,7 %, qurilishda – 13,3 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 20,0 %, xizmatlarda – 15,0 % va savdoda – 6,3 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil I-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 81,5 % sanoat korxonalarini, 85,4 % – savdo, 85,0 % – xizmatlar, 80,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 66,7 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: A.Shoberdiyev

Tel.: (0376) 223-07-19